

# ЎТМИШГА НАЗАР

МАХСУС СОН

---

# ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

---

# LOOK TO THE PAST

SPECIAL ISSUE



**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Раҳбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**"Ўтмишга назар" илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши**  
**редакционный совет научного журнала "Взгляд в прошлое"**  
**Editorial board of the scientific journal Looking into the past**

**Кебадзе Мадонна**

*Доктор исторических наук, Телавский  
государственный университет, Грузия*

**Бурдиашвили Майя**

*Доктор исторических наук, Телавский  
государственный университет, Грузия*

**Кожакесва Ляззат Темировна**

*тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети,  
Қозоғистон Республикаси*

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**

*тарих фанлари доктори, профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети*

**Бобожонова Дилором Бобожонова**

*тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети*

**Зияева Доно Хамидовна**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти*

**Аширов Адҳам Азимбаевич**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти*

**Агзамова Гулчехра Азизовна**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти*

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**

*тарих фанлари доктори, Тошкент  
кимё - технология институти*

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**

*тарих фанлари номзоди, Ўзбекистон  
давлат жаҳон тиллари университети доцент*

**Эргашева Юлдуз Алимовна**

*Тарих фанлари доктори, профессор  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт институти*

**Теймураз Ахалмосулишвили**

*профессор, Телавский государственный университет,  
Грузия*

**Халикова Раҳбар Эргашевна**

*тарих фанлари доктори, профессор, Тошкент  
давлат техника университети*

**Ишанходжаева Замира Райимовна**

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон  
Миллий Университети*

**Кобзева Ольга Петровна**

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Одилов Аброр Анварович**

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**

*тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Сайнова Камола Давляталиевна**

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Джоробекова Айнура Эшимбековна**

*тарих фанлари номзоди, профессор, Ташқи ишлар  
вазирлиги қошидаги Дипломатия академияси,  
Қозоғистон Республикаси*

**Толипов Файзулла Саидович**

*Тошкент давлат техника университети доцент,  
тарих фанлари номзоди*

**Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

<b>23. Berdiyev A.A.</b> BUXORO AMIRLIGINING XVIII- XIX ASRLARDA TASHQI SAVDOSI VA DIPLOMATIK ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....	198
<b>24. Ботиров Э.</b> МУҒУЛЛАРДАН ТЕМУРИЙЛАРГАЧА: БОЖХОНА ВА БОЖ СОЛИҚЛАРИ ТАРИХИДАН.....	208
<b>25. Валихонова Г. К.</b> РУС САЙЁҲЛАРИ ВА ҲАРБИЙЛАРИНИНГ ШАРҚИЙ ТУРКИСТОНДАГИ ВАЗИЯТГА МУНОСАБАТЛАРИ.....	214
<b>26. Ганиева Ч.Х.</b> МУЗЕЙЛАР ФАОЛИЯТИДА МАДАНИЙ-ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	220
<b>27. Давлатова Ш.</b> АМИР ТЕМУР ДАВРИ ТАРИХИ ҲАҚИДАГИ МАНБА.....	227
<b>28. Ёдгоров З.Ш.</b> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ.....	233
<b>29. Жахонов Т.</b> ШИМОЛИЙ БАҚТРИЯ КУШОНЛАР ШАҲАРСОЗЛИГИНИ ЎРГАНИЛИШИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (XX аср 70-йилларига қадар).....	239
<b>30. Жўраев А.</b> ЁЗМА МАНБАЛАРДА ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ.....	244
<b>31. Zupunova G.</b> ONALIK MAROSIMI: TOSHKENT TATARLARINING QARASHLARI VA E'TIQODLARI.....	249
<b>32. Инатов М.Н.</b> XX АСР 20-ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	261
<b>33. Кариева Н.А.</b> РОССИЯ ИМПЕРАТОРЛИГИ ЖАМИЯТИ АЪЗОСИ Н.А.СЕВЕРЦОВНИНГ ТУРКИСТОН ҲУДУДИДА ОЛИБ БОРГАН ФАОЛИЯТИ МАСАЛАСИГА ДОИР.....	269

## МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT


<b>34.Канимкулов О.Ш.</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХ ҲАМДА АРХЕОЛОГИЯ ФАНИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИДА ЯҲЁ ФУЛОМОВ ХИЗМАТЛАРИ.....	278
<b>35.Камолов Ж.М.</b> ЭФТАЛИТЛАР ДАВРИ ШАҲАРСОЗЛИГИ.....	286
<b>36.Курязова Д.</b> ЎЗБЕКИСТОНДАГИ АРХЕОЛОГИК ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ЙЎЛИ БИЛАН САҚЛАБ ҚОЛИШ МАСАЛАЛАРИ....	292
<b>37.Қурбонов Ф.Н., Шоев И.Х.</b> БУХОРО ДАВЛАТ МУЗЕЙ - КЎРИҚХОНАСИ ЖАМЛАНМАСИДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДАВРГА ОИД ТАНГАЛАР ВА ТАНГА ХАЗИНАЛАРИ (НУМИЗМАТИК ТАҲЛИЛ).....	299
<b>38.Исматова Н.К.</b> ЯНГИЛАНГАН ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМДАГИ ИСЛОҲОТЛАР (1989-2020 йиллар).....	307
<b>39.Исматуллаев Ф.О.</b> ЎЗБЕКИСТОН ВА ЛАТВИЯ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	319
<b>40.Кадирова М.Т.</b> МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ УСМОНИЙЛАР ИМПЕРИЯСИ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ.....	329
<b>41.Каромов Ф.Ҳ.</b> ТУРКИСТОНДА ОНАЛИК ВА БОЛАЛИКНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ.....	334
<b>42.Мажидов Ш.Ф.</b> МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ЭТНОСИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ: ЕИ ТАЖРИБАСИ (2000-ЙИЛЛАР БОШИ).....	340
<b>43.Мамадаминова Б.</b> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ ҲУКУМАТИНИНГ ИЖТИМОИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР.....	345
<b>44.Mattiyev O'.B.</b> TURKISTONDAGI AFG'ON MUHOJIRLARI FAOLIYATINING GENERAL GUBERNATORLIK DAVRI HUUJATLARIDA YORITILISHI.....	353

# ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Mattiyev O'tkir Begmatdo'lovich,  
SamDU mustaqil tadqiqotchisi

## TURKISTONDAGI AFG'ON MUHOJIRLARI FAOLIYATINING GENERAL GUBERNATORLIK DAVRI HUIJATLARIDA YORITILISHI

*For citation: Mattiev Utkir Begmatdolobovich. LIGHTING OF THE ACTIVITIES OF AFGHAN MIGRANTS IN TURKESTAN IN DOCUMENTS OF THE PERIOD OF THE GENERAL GOVERNOR. Look to the past. 2020, SI, pp. 353-358*

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-44>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX - XX asrlarda qo'shni davlat Afg'onistonda yuz bergan siyosiy jarayonlar haqida so'z yuritiladi. Qolaversa maqolada asosiy e'tibor Afg'onistondagi ichki siyosiy beqarorlik natijasida Turkiston mintaqasiga kirib kelgan afg'on muhojirlari tarixiga oid O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan manbalarning qisqacha tahliliga qaratilgan. Mavzuni yoritishda Markaziy Davlat arxivi ma'lumotlariga tayanishning sababi esa XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoni zabt etgan Rossiya imperiyasining o'z boshqaruv uslublaridan kelib chiqqan holda joriy etgan hisobotlari, statistikasi doir ma'lumotlarning ko'pligidadir.

**Kalit so'zlar:** Hisobot, Statistika, Arxiv, Fond, Kanselyariya, General - gubernatorlik, Metropoliya, Nizom.

Маттеев Уткир Бегматдолобович,  
СамГУ - независимый исследователь

## ОСВЕЩЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АФГАНСКИХ МИГРАНТОВ В ТУРКЕСТАНЕ В ДОКУМЕНТАХ ПЕРИОДА ГЕНЕРАЛЬНОГО ГУБЕРНАТОРА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются политические процессы, имевшие место в соседнем Афганистане в XIX - XX веках, а также история афганских мигрантов,

въехавших в Туркестанский регион в результате внутривосточной нестабильности в Афганистане. Основанием полагаться на данные Центрального государственного архива являются отчеты и статистика Российской империи, покорившей Центральную Азию в середине XIX века. 'в изобилии информации.

**Ключевые слова:** отчет, статистика, архив, фонд, канцелярия, генерал-губернатор, мегаполис, устав.

**Mattiev Utkir Begmatdolobovich,**  
SamSU is an independent researcher

## LIGHTING OF THE ACTIVITIES OF AFGHAN MIGRANTS IN TURKESTAN IN DOCUMENTS OF THE PERIOD OF THE GENERAL GOVERNOR

### ABSTRACT

This article discusses the political processes that took place in neighboring Afghanistan in the 19th and 20th centuries, as well as the history of Afghan migrants who entered the Turkestan region as a result of domestic political instability in Afghanistan. The basis for relying on data from the Central State Archive are the reports and statistics of the Russian Empire that conquered Central Asia in the middle of the 19th century. 'abundant information.

**Index Terms:** report, statistics, archive, fund, office, governor general, metropolis, charter.

**D**olzarblygi. Tarixiy voqealarning ilmiy jihatdan tahlil etilishi, bevosita manbalar bilan ishlashni taqozo etadi. Ma`lum bir davrga oid manbalar juda ko`p ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Shuning uchun dastlabki yoki birlamchi materiallar bilan ishlash manbashunoslik yo`nalishidagi ilmiy izlanishlarda eng muhim soha hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda XIX asr o`rtalari va XX asr boshlarida Turkistonda yashagan Afg'on fuqarolari faoliyatini o`rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki XIX asrdan boshlab yosh Afg'on davlati xalqaro siyosatda muhim o`rin tuta boshladi. Kapitalistik munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi natijasida va mustamlakachilik siyosatining kuchayishi natijasida Afg'onistonga bo`lgan talab kuchayib ketdi. Mamlakatda yuz berayotgan notinchliklar, milliy ozodlik kurashlari va taxt uchun bo`lgan kurashlar natijasida ko`plab afg'on fuqarolari Turkistonga kirib kela boshladi. Afg'onistonni qo`ldan chiqarishni istamagan Rossiya imperiyasi bu jarayondan o`z maqsadlari yo`lida foydalanib qolishga harakat qildi.

2. Metodlar va o`rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik tizimlilik xolislik tamoyillari shuningdek, muammoga tsivilizatsion yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullari asosida yoritilgan.

Tarixiy manbashunoslikda XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari O`rta Osiyo xalqlari tarixiga oid ma`lumotlar Rossiya imperiyasining bu hududda o`rnatgan boshqaruv tizimi bilan bevosita bog`liq bo`lgan materiallarga tayanadi. Ular orasida qo`shni xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar to`g`risidagi ko`plab manbalar tarixchi olimlar tomonidan tahlil etilgan, urganilgan va bu jarayon hanzgacha davom etmoqda.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkistonning chegaradosh davlatlar bilan munosabatlar oid mavzuni yoritishda uning o'rganilishiga e'tibor bersak, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkistonning qo'shni hududlar bilan aloqalariga oid ko'plab mualliflarning asarlarini ko'rsatish mumkin. Mavjud manbalarni tahlil etish jarayonida eng ko'p ma'lumotlar qo'shni Afg'oniston bilan munosabatlarga oid ekanligini kuzatdik. Ular turli xil ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Afg'oniston bilan bog'liq munosabatlar yana bir turkum asarlarda ayrim holatlari o'rganilgan. Masalan, 1958 yilda Afg'oniston mustaqilligining 40 yilligiga bag'ishlab ilmiy maqolalardan iborat to'plam nashr etildi. Bu to'plamda O'zbekistonda imliy faoliyat olib borgan olimlar N.A.Xalifin va M.A.Babaxodjaevlar o'zlarining maqolalari bilan qatnashganlar. Ular Afg'onistondagi inglizlarga qarshi milliy ozodlik kurashi to'g'risida fikr yuritishgan. Bir oz fursatdan keyin, 1966 yilda, Toshkentda yangi asar nashr etildi. Bu asardan M.A.Babaxodjaevning bir necha maqolalari o'rin olgan. Ularda olim Afg'oniston aholisining XIX asr oxiridagi milliy tarkibi, afg'on amiri Abdurahmonning moliyaviy va soliq siyosati, Afg'oniston qurolli kuchlari va amir Abdurahmonxonning harbiy o'zgarishlari to'g'risida fikrlar bayon etdi.

Muallif Abdurahmonxonning harbiy ishlari to'g'risida avval ham maqola e'lon qilgan edi.[3;18-34]Olim bu masalalarni O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivi fondlaridan juda samarali foydalangan holda yoritgan.

Taniqli tarixchi olim Hamid Ziyoev ham afg'on jangchilari to'g'risida ma'lumot beradi.

Shuni aytish lozimki, Afg'oniston bilan munosabatlarga oid ma'lumotlar o'sha davr Rossiya manbalarida ham ko'plab uchraydi.

Afg'onistonning Rossiya bilan Turkiston orqali bo'lgan aloqalari to'g'risida afg'on olimi Seid Qosim Rishtiy "Afg'onisto XIX-XX asrda" nomli monografiya yozgan bo'lib, monografiyaning 39-40 boblari bevosita Turkistonda istiqomat qilib, keyinchalik Afg'oniston amiri bo'lgan Abdurahmonxon haqida, uning Samarqand va Toshkent shaharlarida bo'lishi to'g'risida ma'lumot beradi.

Keltirilgan manbalar Turkistonning XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qo'shni hududlar bilan bo'lgan munosabatlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar emas. Chunki o'rganilayotgan mavzu katta davrni va keng mulohazalarni qamrab oladi.

Turkiston o'lkasining qo'shni hududlar, ularning aholisi, mehnat va o'zaro aloqalariga oid dastlabki ma'lumot sifatida Turkiston General-gubernatorligi mahkamasi (kantselyariya) hujjatlaridan foydalanish mumkin. Ushbu ma'lumotlar hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi fondlarida saqlanmoqda. Ayniqsa, I-2 Fondi: Turkiston General-gubernatori qoshidagi diplomatik amaldori, I-3 Fondi: Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agentligi kabi tashkilotlarga tegishli hujjatlarda Turkistonning chegaradosh hududlari Afg'oniston, eron, Xitoy to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlarni olish mumkin.

Ushbu maqola mazmunini yoritishda asosiy manba sifatida I-1-Turkiston general-gubernatorligi mahkamasining faoliyat olib borgan bo'limlariga tegishli bo'lgan hujjatlar orasidan XIX asrda Turkiston General-gubernatorligi tarkibiga qo'shilgan Ettisuv va Kaspiyorti viloyatlari harbiy gubernatorlarning yillik hisobotlaridan foydalanildi. Chunki bu hisobotlarda qo'shni hududlar bilan munosabatlarga oid juda ko'plab ma'lumotlar, statistik raqamlar, bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, yillik hisobotlarni Turkiston General-gubernatorligi tashkil etilganidan so'ng viloyatlardagi ahvoldan doimiy xabardor bo'lib turish uchun Peterburg metropoliya sifatida barcha gubernatorlar va viloyat harbiy-gubernatorlaridan, imperiya mahkamasi tomonidan 1853 yilda joriy etilgan Nizom asosida har yili hisobot berib

turishlarini talab etadi. Nizom juda ko'p mayda qismlardan iborat bo'lib, ularni tuzish anchagina vaqtni o'z ichiga olgan, takrorlanib turuvchi ma'lumotlar ko'p bo'lgani uchun, 1870 yil 19 iyunda Chor hukumati Vazirlar Qo'mitasining tavsiyasi bilan barcha gubernatorlar, viloyatlar harbiy-gubernatorlarining yillik hisobotlarini tuzishni ancha ixchamlashtirilgan holdagi Nizomini tasdiqladi va hisobotlarni topshirishni majburiy deb belgilab berdi. [3;22-24] Hisobotlarda, rejaga binoan, barcha viloyat harbiy-gubernatorlari dastlab viloyat hududida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlanishi haqida (ammo aksariyat hisobotlar viloyatdagi demografik vaziyatga oid ma'lumotlar bilan boshlanadi), mahalliy aholining iqtisodiy faoliyati, soliqlar, ijtimoiy holatga oid ma'lumotlar va hokazo talablar orasida qo'shni mamlakatlar va ular aholisining viloyat aholisi iqtisodidagi tutgan o'rni to'g'risidagi xabarlarni berishadi.

Ettisuv, Kaspiyorti viloyat harbiy-gubernatorlarining hisobotlarida boshqa viloyatlarga qaraganda qo'shni hudud va xalqlar to'g'risida ma'lumotlar ko'p uchraydi, chunki bu masalabilan Turkiston general-gubernatorligidamaxsus diplomatiyabo'limi faoliyat olib borgan.

Xususan, Kaspiyorti viloyati harbiy-gubernatori General-leytenant Bogolyubovning 1898 yilga oid hisobotida viloyatning qo'shni hududlar bilan munosabatlariga oid quyidagi ma'lumotlarni beradi. Buxoro amirligi (hisobotlarda xonlik deyilgan) va Xiva xonligiga doir ma'lumotlarda asosan savdo munosabatlari yoritilgan. Masalan, Kaspiyorti viloyati Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalarida oraliq punkt vazifasini o'tagan, Kaspiyorti viloyatida Buxoro bilan savdo aloqalariga e'tibor sust bo'lgan. Aksincha, Xiva xonligi bilan savdo munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, Xivadan viloyatga asosan g'alla etkazib berilganligi ko'rsatilgan. Viloyatning Eron bilan munosabatlariga oid ma'lumotda bojxona xizmatining xabarlari keltirilgan, unga ko'ra Afg'onistondan 4977000 rubl miqdorida tovar mahsulotlari olib kelinib, Afg'onistonga 4742000 rubl miqdorida mahsulot chiqarilgan bo'lib, choy, paxta, jun, quruq meva, mato, shakar, sholi, buyoq kabi mahsulotlar o'zaro savdoda asosiy hisoblangan. [4;20]

Hisobotda viloyatning Afg'oniston bilan savdo munosabatlariga izohida o'zaro savdo eronga nisbatan sust bo'lsa-da, afg'on aholisi tomonidan savdo munosabatlarini kengaytirishga intilish sezilarli bo'lganligi, ayniqsa, Kaspiyorti temir yo'li Murg'ob shoxobchasining ishga tushishi, savdo aloqalarining kengayishiga imkoniyat yaratilganligi aytib o'tilgan. Hatto Afg'onistondan olib kelinayotgan asosiy tovar-chorva mollari bojxona soliq to'lovlaridan, shuningdek, viloyatdan chiqariladigan barcha mahsulotlar ham bojxona solig'idan Afg'oniston foydasiga ozod etilgan. Hisobotda Afg'oniston hukmron doiralarning Rossiya imperiyasiga nisbatan do'stona munosabatda bo'lmaganligi o'zaro savdoning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi zikr etiladi.

Shuningdek, viloyat harbiy-gubernatori o'zidagi mavjud ma'lumotlarga tayangan holda Afg'onistondagi ichki vaziyat haqida ham ma'lumotlar berib borgan. Afg'oniston amiri Abdurahmonxon o'z aholisiga nisbatan olib borgan siyosati oqibatida mamlakatdan aholining o'zga ellarga ko'chishi kuchaygani, imperiyaga chegaradosh Kofiristonning egallanishi oqibatida "Qalai-Nov" qal'asining qayta tiklanganligi va amir o'z qo'shinini qayta qurollantirayotganligi aytilgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Afg'oniston amiri Abdurahmonxon tashqi siyosatida asosan Britaniyaga qarshi turgan, xususan, Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegarasidagi hind aholisining inglizlarga qarshi qo'zg'oloniga amir xayrixoh bo'lgan, hattoki Qobul shahridagi qurolsozlik zavodidagi ingliz muxandislarini va zavod direktori Solter Paynni ham ishdan bo'shatgan. Ma'lumotga ko'ra, Abdurahmonxon Britaniyadan yiliga 1800000 rupiy subsidiyani Rossiya imperiyasiga qarshi mudofaa ittifoqi uchun olib turgan. [5;27] Abdurahmonxon Hindistonning vitse qiroli Lord Kerzon bilan

do'stona munosabatda bo'lsa-da, uning asosiy maqsadi Afg'oniston mustaqilligini saqlab qolish bo'lgan, bu esa Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi yerlari va Britaniya o'rtasida bufer rolini o'ynashini bildirgan. Amir Abduraxmon-xondan Britaniya hukumatini siyosiy maqsadlari mavjud bo'lib, shu maqsadda Britaniyadan har yili 1mln 800000 rupiy miqdorida moddiy mablag' olib, uni Rossiyaga qarshi mudofaa ittifoqi uchun ishlatilishi belgilangan edi.[8-27]

Kaspiyorti viloyati Afg'oniston bilan savdo aloqalarini Taxta-bozor va kam miqdorda Kushka chegara postlari orqali amalga oshirgan. Hisobotlarda Afg'oniston kabi eron bilan bo'lgan munosabatlar, mamlakatning ichki ahvoli, tashqi siyosatiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kaspiyorti viloyati harbiy-gubernatorining 1908 yildagi hisobotida Afg'oniston bilan munosabatlarga doir viloyat rahbariyatining o'ziga xos fikrlari ma'lumot uchun qiziqarli hisoblanadi. Ta'kidlanishicha, Afg'on savdogarlari va ishchilari erkin-tusiqlarsiz viloyat hududiga kirib kelishgan. Aksincha, Kaspiyorti viloyatidan biror kishi Afg'onistonga o'tkazilmagan. Buning asosiy sabablaridan biri o'sha paytda Afg'onistondagi vaziyatning noqulayligi bo'lib, buning oqibatida Rossiya imperiyasining Afg'oniston bilan savdo aylanmasi imperiya savdosining 0,2%ni tashkil etgan xolos. Afg'on savdogarlari faqat ho'l meva savdosidan 3000000 rubl foyda olgan bo'lsa, Kaspiyorti viloyati faqat paxtadan to'qilgan matolarni 2000000 rublga sotgan. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda Afg'oniston bilan savdo aloqalarini eronning Mashhad va Turbet-i-Xeyderi manzillari orqali olib borish taklif etiladi.

Ma'lumotga ko'ra, 1908 yilda Kaspiyorti viloyatiga Afg'onistonning jamshidiy qabilasidan 10000 nafar kishi ko'chib keladi. Ulardan 7000 nafari "Chamani-Bida" degan joyga joylashtirilgan, qolganlari o'z yurtlariga qaytib ketishgan.[6;44]

Kaspiyorti viloyatining 1911 yildagi hisoboti (bu hisobot Turkiston general-gubernatorligi mahkamasida №15808 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) viloyat bilan chegaradosh eron to'g'risida ko'plab ma'lumot beradi. Manbaning guvohlik berishicha, Kaspiyorti viloyati va eron o'rtasida, 1884 yilgi shartnomaga binoan, Atrek daryosi suvidan foydalanishga oid shartnoma imzolangan bo'lib, eronning chegaradosh hudud aholisi Atrek suvidan foydalanish qoidalarini buzishgan. Natijada Mashhad shahridagi Rossiya Bosh Konsulligining yordamida ulardan 2000 rubl miqdoridagi jarima undirilgan. Turkiston General-gubernatorligi mahkamasi hujjatlarida Buxoro amirligi va Samarqand viloyati o'rtasida Zarafshon daryosi suvi taqsimotiga oid ma'lumotlar ham mavjud. Hisobotda eronning Xurosan, Mashhad, Astrobod kabi hududlardagi siyosiy vaziyatga baho berilgan. Afg'oniston to'g'risida ma'lumotlar ko'proq bu mamlakatdagi ichki ziddiyatlar oqibatida Kaspiyorti orqali olib borilgan savdo munosabatlari avvalgi yillarga nisbatan bir muncha kamaygan. [7;44-45]

#### 4.Xulosalar:

Yuqorida keltirilgan manbalar shundan dalolat beradiki, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Kaspiyorti viloyati qo'shni Eron va Afg'oniston bilan Rossiya imperiyasining viloyati sifatida munosabatlar olib borgan, viloyat harbiy-gubernatorlarining hisobotlarida bu davlatlar to'g'risidako'proq diplomatik ma'lumotlar berilgan. Holbuki, manbalarning guvohlik berishicha, chegaradosh hududlar aholisi o'zaro munosabatlar, ayniqsa, savdo munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilishiga juda intilishgan.

#### Иқтибослар/Сноски/References:

1. Бабаходжаев М.А. Восстание в Хозаржате в 1892-1893 гг., "Общественные

науки в Узбекистане", 1963, №11, стр. 18-34. (Babakhodjaev M.A. The uprising in Khozarzhat in 1892-1893., "Social Sciences in Uzbekistan", 1963, No. 11, pp. 18-34)

2. Сеид Касем Риштия. Афганистан в XIX веке. Издательство Иностранной литературы. Москва, 1958. 487 стр. (Seid Kassem Rishtiya. Afghanistan in the 19th century. Publishing House of Foreign Literature. Moscow, 1958. 487 pp)

3. ЎМА, фонд И-1, Рўйхат-20, йиғма жилд - 4284, варақ - 22-24 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-20, collection-folding volume - 4284, sheet - 22-24)

4. ЎМА, фонд И-1, Рўйхат-12, йиғма жилд - 1983, варақ - 20 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-12, collection-folding volume - 1983, sheet - 20).

5. ЎМА, фонд И-1, Рўйхат-12, йиғма жилд - 1983, варақ - 27 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-12, collection-folding volume - 1983, sheet - 27).

6. О'МА, фонд I-1, ру'хат - 12, йиғма жилд-1382, варақ-44 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-12, collection-folding volume - 1382, sheet - 44).

7. ЎМА, фонд И-1, Рўйхат-12, йиғма жилд - 1382, варақ - 44-45 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-12, collection-folding volume - 1382, sheet - 44-45).

8. О'МА, фонд I-1, рухат - 12, йиғма жилд-1983, варақ-27 (National Archive of Uzbekistan fund I-1, List-12, collection-folding volume - 1983, sheet - 27).

## ЎТМИШГА НАЗАР

---

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

---

## LOOK TO THE PAST

### МАХСУС СОН

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000